

DOI: <https://dx.doi.org/10.51788/tsul.rols.2023.7.1./GCYC7009>
UDC: 347.918(045)(575.1)

ARBITRAJ KELISHUVLARIDAGI HUQUQNI TANLASH MASALALARINI HAL ETISHDA ERK MUXTORIYATI (PARTY AUTONOMY) PRINSIPI TAHLILI

Xatamjonova Gulsanam Yasharjon qizi,
Toshkent davlat yuridik universiteti tayanch doktoranti
ORCID: 0000-0001-8553-0315
e-mail: gkhatamjonova@gmail.com

Annotatsiya. Erk muxtoriyati prinsipi xalqaro xususiy huquq ishtirokchilariga o'z xohishlari asosida harakatlana olishlariga imkon beradi. Mazkur prinsip asosida esa taraflar mavjud nizolar yoki vujudga kelishi mumkin bo'lgan nizolarni milliy sudlar tizimi bilan emas, arbitraj bilan hal etishga kelisha oladilar. Arbitraj kelishuvi bitimlari esa arbitraj jarayonlari boshlanishi uchun asos vazifasini o'taydi. Taraflarning birgina xohishi, ya'ni irodasi taraflar o'rtasidagi nizolarni sudlar yordamida emas, arbitraj orqali hal etishga yordam beradi. Mazkur maqolada arbitraj kelishuvi bitimlari tuzilishida erk muxtoriyati (party autonomy) prinsipining ishtiroki o'rjanib chiqiladi. Arbitraj kelishuvi bitimi tuzilishi jarayonida taraflar erk muxtoriyati prinsipidan qay darajada foydalana olishlari tadqiq etiladi. Taraflarning erk-irodasi, ya'ni xohishlari arbitraj bitimi tuzishda asos vazifasini bajarishi muhokama qilinadi. Arbitraj kelishuvi bitimlarining huquqiy ta'rifi hamda tabiatи turli qonunchilik manbalari bilan qiyoslangan holda sharhlanadi hamda arbitraj kelishuvi bitimlarining o'ziga xos xususiyatlari o'rjaniladi. Bundan tashqari, arbitraj kelishuv bitimining eng asosiy vazifasi hisoblangan yurisprudensiya, ya'ni nizolar uchun qo'llanadigan huquqni tanlash amaliyoti ko'rib chiqiladi. Shuningdek, arbitraj kelishuvi bitimini tuzuvchilar tomonidan nizolar uchun qo'llanadigan huquq kelishuv bitimida ko'rsatilmaganida, nizolar qay tartibda ko'rib chiqilishining eng samarali usullari taqdim etiladi.

Kalit so'zlar: nizolarni muqobil hal etish usullari, arbitraj kelishuvi, erk muxtoriyati (party autonomy), nizolar uchun qo'llanadigan huquq, asosiy shartnoma, ekspress tanlov, arbitraj tili, prinsipni chekllovchi omillar.

АНАЛИЗ АВТОНОМИИ СТОРОН (PARTY AUTONOMY) В ВОПРОСЕ ПРИМЕНЕНИЯ ПРАВА В АРБИТРАЖНЫХ СОГЛАШЕНИЯХ

Хатамжонова Гулсанам Яшаржон кизи,
базовый докторант Ташкентского
государственного юридического университета

Аннотация. Принцип партийной автономии дает сторонам право действовать в соответствии со своими интересами. В соответствии с этим принципом стороны могут заключить арбитражное соглашение, которое позволит им решать свои споры через арбитраж, а не через национальную судебную систему. Арбитражные соглашения будут единственным документом для возбуждения арбитражного разбирательства. В данном случае желание сторон может превалировать над национальной судебной системой. В

научном исследовании рассмотрено применение принципа автономии сторон при составлении арбитражных соглашений. В статье анализируется использование этого принципа сторонами при составлении договоров. Обсужден вопрос пожеланий сторон как единственное основание для разработки арбитражных соглашений. Юридические определения и особенности арбитражного соглашения проанализированы на основе законодательства многих стран. Основная функция соглашений заключается в том, чтобы позволить сторонам выбирать применимое право для своих споров, поэтому обсуждается процесс выбора применимого права. Представлены пути решения проблем, когда в договорах не указывается выбор применимого права.

Ключевые слова: альтернативные методы разрешения споров, арбитражное соглашение, автономия сторон, регулирующее право соглашения, основной контракт, прямой выбор, язык арбитража, ограничения принципа.

ANALYSIS OF PARTY AUTONOMY IN THE APPLICATION OF LAW IN ARBITRATION AGREEMENTS

Khatamjonova Gulsanam Yasharjon kizi,
PhD student,
Tashkent State University of Law

Abstract. The principle of party autonomy gives the parties the right to act in accordance with their interests. Under this principle, the parties may enter into an arbitration agreement that will allow them to resolve their disputes through arbitration rather than through the national judicial system. The Arbitration Agreements is the only document for initiating arbitration proceedings. In this case, the wishes of the parties may prevail over the national judicial system. The scientific study examined the application of the principle of party autonomy in the drafting of arbitration agreements. The article analyzes the use of this principle by the parties in the preparation of contracts. The issue of the wishes of the parties was discussed as the only basis for the development of arbitration agreements. The legal definitions and features of an arbitration agreement are analyzed based on the laws of many countries. The main function of agreements is to allow the parties to choose the applicable law for their disputes, so the process of choosing the applicable law is discussed. Ways of solving problems are presented when the choice of applicable law is not indicated in the contracts.

Keywords: alternative dispute resolution methods, an arbitration agreement, party autonomy, the governing law of the agreement, the main contract, express choice, the language of the arbitration, limitations to the principle.

Kirish

Xalqaro xususiy huquq doirasida tarafalar o'rtasida nizolar mavjud bo'lsa, taraflar nizolarni hal etishni o'z irodasi asosida arbitrajga topshirishga kelishishlari mumkin. Bunda taraflar o'z irodalariga asoslanib, sudning nizolarni hal etish vakolatini rad etadilar va arbitrajni nizolarni hal qilish uchun qo'llashga kelishadilar. Taraflarning birgalikdagi kelishivi sudning vakolatini rad etish uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Ayni shu holat taraflarning erk muxtoriyati

(party autonomy) prinsipi asosida harakatlanayotganligining birinchi ko'rinishi hisoblanadi [1]. Albatta, taraflar butun bir arbitraj kelishivi bitimini tuzishdan boshlab nizolarni hal etish bosqichiga asosan, faqtgina o'z xohishlari asosida harakat qilmaydilar, balki bu jarayonlarning borishiغا sezilarli darajada xizmat ko'rsatadilar. Bunga taraflarning nizolarni arbitrajda hal etish bo'yicha kelishuv bitimi tuzish, kelishuv bitimida nizolar uchun qo'llanadigan huquqni tanlash hamda arbitraj protsesslari

qanday tartibda o'tkazilishini belgilash va boshqalar kiradi.

Arbitraj kelishuvlari pozitsiyasi hamda ahamiyatini belgilash erk muxtoriyati (party autonomy) prinsipining qamrovi va rolini aniqlash uchun muhimdir, negaki aynan arbitraj kelishuvlari arbitraj jarayonlarining eng ahamiyatlari elementi hisoblanadi va o'zida taraflarning avtonomiyasini aks ettiradi [2]. Shu sababli ham Okezie Chukwumerije o'zining "Xalqaro tijorat arbitrajida tanlov huquqi" deb nomlangan kitobida arbitraj kelishuvlarini taraflarning dastlabki avtonomiysi sifatida baholagan [3]. Bu avtonomiya taraflarning birinchi bosqichdayoq nizolarni sudlar orqali hal etish huquqlaridan voz kechganligini ko'rsatadi. Faqatgina arbitraj kelishivi taraflarning nizolarni sud orqali hal etish huquqlaridan voz kechganliklarini aks ettiruvchi hujjat bo'la oladi [4]. Keyinchalik taraflarning xohishlari asosida arbitraj kelishuvlari arbitraj protsesslarining qanday borishini yo'naltirib turuvchi hujjatga aylanshi mumkin.

Arbitraj kelishuvlari arbitraj jarayonlari ning har bir bosqichida o'z ahamiyatiga ega. Har qanday sharoitda ham har bir arbitraj jarayoni milliy yoki xalqaro bo'lishidan qat'i nazar, arbitraj kelishivi bilan boshlanadi. Shu sababli Manchester huquq universiteti professori Nadia Ramzy Salama o'zining "Xalqaro tijorat arbitraji kelishuvlarining tayyorlanishida erk muxtoriyatining tabiatni, qamrovi va roli" kitobida arbitraj kelishuvlarini boshlovchi bo'g'in sifatida ta'riflaydi [5]. Taraflarning kelishuv bitimi ular o'rtasida yuzaga kelgan yoki yuzaga kelishi mumkin bo'lgan nizolarni arbitraj orqali hal etish uchun asosiy hujjatdir.

Material va metodlar

Tadqiqotdagi asosiy masalalar bilan birgalikda arbitraj kelishivi bitimlarining o'ziga xos tabiatni, ushbu kelishuv bitimlarining huquqiy ta'riflari va xarakteri turli qonunchilik manbalari yordamida o'rganib chiqildi.

Mazkur tadqiqotda ilmiy bilishning tahliliy, umumlashtirish, qiyosiy-huquqiy, mantiqiy, tizimli-tuzilmaviy, formal yuridik o'rganish usullaridan foydalanildi.

Tadqiqot natijalari

Arbitraj kelishuvlarining huquqiy ta'rifi ko'plab xalqaro konvensiyalar yoki milliy qonunchilik tomonidan keltirilgan. Berilgan ta'riflarning aksariyati bir-biriga o'xshash yoki aynan bir-birini takrorlaydi. Bu takroriylik arbitraj kelishuvini tuzuvchilar mustaqil ekanliklari, kelishuvlarida o'z irodasini namoyon eta olish erkinligi mavjudligida namoyon bo'ladi. Misol uchun, UNCITRAL Model Lawning 7-moddasida arbitraj kelishuvlariga quyidagicha ta'rif berilgan: "Aniq bir huquqiy munosabatlar doirasida vujudga kelgan yoki vujudga kelishi mumkin bo'lgan nizolarning hammasi yoki ayrim qismini arbitrajga topshirish to'g'risidagi taraflarning kelishuvlidir. Arbitraj kelishuvlari asosiy shartnomaning bir qismi yoki alohida shartnomaga sifatida tuzilishi mumkin".

1994-yilda qabul qilingan Misr Arbitraj kodeksida esa arbitraj kelishuvlariga quyidagicha ta'rif keltirilgan: "Shartnomaviy munosabat yoki shartnomaviy munosabat emasligidan qat'i nazar, qonuniy asoslarda paydo bo'lgan munosabatlar doirasida vujudga kelgan yoki vujudga kelishi mumkin bo'lgan nizolarning hammasi yoki bir qismini arbitrajda hal etish uchun taraflarning kelishuvlidir".

1997-yilda qabul qilingan Ingliz Arbitraj akti arbitraj kelishuvlariga shunday ta'rif berigan:

"...nizolarni hal etish uchun taraflarning xohish-irodasini aks ettiradigan kelishuv".

Ushbu keltirilgan ta'riflarning umumiyligi hatlari bir xil, ya'ni kelishuvlar eng kamida ikki taraf o'rtasida tuzilishi, allaqachon vujudga kelgan yoki vujudga kelishi mumkin bo'lgan nizolarni ham ko'zda tutishi mumkin bo'lishi, mavjud nizoning barchasi yoki bir qismini arbitrajga taqdim etish mumkinligidir. Bu yerdagi yagona farq qiluvchi qoidi.

da Misr qonunchiligidagi mavjud bo'lib, Misr qonunlari tomonidan ko'rildigan munosabatlar qonuniy asosda vujudga kelishi lozimligi va qonuniy asosda vujudga kelgan bo'lsa, shartnomaviy bo'lмаган munosabatlar ham arbitraj kelishuvi predmeti bo'la olishi belgilanganligidir.

Yuqoridagi ikki ta'rifdan ham to'laroq va mukammalroq ta'rif Nyu York Konvensiyasida keltirilgan: "Arbitrajda ko'rib hal etilishi mumkin bo'lgan mavzudagi qonuniy munosabatlardan vujudga kelgan yoki vujudga kelishi mumkin bo'lgan, shartnomaviy munosabat yoki shartnomaviy bo'lмаган munosabat, nizolarning hammasi yoki bir qismini arbitrajda ko'rish uchun yozma shaklda tuzilgan yozma kelishuv".

Ushbu ta'rifdan arbitraj kelishuvlari faqatgina arbitraj jarayonlari orqali ko'rilib, hal qilinishi lozim bo'lgan masalalarni qayd etishi, munosabatlar qonuniy asosda vujudga kelishi va yozma shaklda bo'lishi lozimligini tushunamiz. Demakki, arbitraj kelishuvlari yozma tarzda tuzilishi zarur va og'zaki kelishuvlarga asoslanib, arbitraj jarayonlarini boshlash mumkin emas.

Tadqiqot natijalari tahlili

Taraflarni nizolarni arbitraj asosida hal etishga undaydigan asosiy sabab arbitraj jarayonlarida va arbitraj boshlanishidan oldindi jarayonlarga taraflarning ta'siri kuchi mavjudligidir [6]. Ularning erk-irodasi arbitraj jarayonlarida hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Taraflar o'zlarining avtonom huquqlarining realizatsiyasi sifatida arbitrlar tanlash erkinligiga ham ega bo'ladi. Taraflarning arbitrlarini tanlash vakolatiga ega bo'lishi arbitraj muvaffaqiyatining yana bir xususiyatidir. Negaki mamlakat sudlarida nizolashuvchilar ishlarni ko'ruchchi sudyalarini tanlash vakolatiga ega bo'lmaydilar. Arbitrajda esa taraflar o'zları ma'qul deb bilgan insonlarni arbitraj jarayonlarida nizolarni ko'rish uchun arbitr sifatida tanlashlari mumkin. Arbitrlar tanlovi uchun taraflarga hech qanday cheklar o'rnatilmagan. Ish uchun arbitrlarni tanlash prot-

sess jarayoni uchun eng muhim bo'lgan xususiyatdir [7]. Shu bois ham taraflar nizolar uchun arbitrlar tanlashga alohida ahamiyat beradilar.

Arbitrlarni tanlashda taraflar o'z nizolari yuzasidan maxsus tayyorgarlikka ega bo'lgan yoxud maxsus ekspertlarni tanlashlari mumkin. Arbitrlar uchun maxsus malaka mutaxassisligi belgilab qo'yilmagan. Arbitrlarning tanlanishi arbitraj jarayonlarini o'tkazishda muvaffaqiyatning yana bir garovidir. Arbitraj jarayonlari uchun arbitrlarning taraflar orqali tanlanishi quyidagi ijobiy oqibatlarni yaratadi:

faqt sudyalar yoki huquqshunoslar tomonidan ish ko'rilmasdan har qanday mutaxassislarning ishni ko'rishiga imkon yaratadi;

arbitrlar o'zları nizoning mutaxassis bo'lganligi uchun zarurat tug'ilganda, ish uchun nizo bo'yicha mutaxassislarni chaqirishlarini zaruratga aylantirmaydi;

nizolashuvchi taraflarning nizolarni ko'rib chiqish uchun kamroq xarajat qilishlarini ta'minlaydi.

Eng asosiy masala taraflarning nizolar uchun qo'llanadigan huquq yoinki qonunni tanlashidir. Negaki aynan shu arbitraj kelishuvi bitimida ko'rsatilgan huquq taraflarning nizolarni hal etuvchi huquq bo'lib xizmat qiladi. Shu sababli taraflar ushbu huquqni tanlashda huquqning munosabatlari uchun munosib ekanligi, ularga ortiqcha ovoragar-chilik tug'dirmasligi va boshqa qulayliklarini hisobga oladilar. Ko'p holatlarda taraflar arbitraj kelishuvi bitimlarida ekspress tarzda o'zlarining tanlagan huquqlarini ko'rsatadilar, lekin ayrim holatlarda taraflar nizolarni uchun qo'llanadigan huquqqa ishora qiladilar [8]. Mazkur holatlar turlicha oqibatga olib kelishi mumkin. Quyida ularni ko'rib chiqamiz.

Tipik holatda ishtirokchilar uch bosqichda, ya'ni asosiy shartnomasi, arbitraj jarayonlarining olib borilishi hamda shartnomada ko'zda tutilmagan holatlar yuzaga kelganda amal qiladigan huquqni tanlaydilar [9]. Ush-

bu jarayon uch xil ko'rinishga ega bo'lishi mumkin.

Taraflarning asosiy kelishuvlari yoki shartnomalari asoslangan huquq. Aksariyat holatlarda taraflar asosiy shartnomaga ega bo'ladilar va ushbu shartnomada ko'zda tutilgan masalalar bajarilmaganda yoki ko'zda tutilganidek bajarilmaganda, vujudga keladigan nizolarni hal etish uchun arbitraj bitimini tuzadilar. Asosiy shartnoma bo'ysunadigan huquq sifatida ko'p holatlarda tuzuvchilarning yashab turgan davlatlari huquqi, shartnoma amalga oshiriladigan mamlakatning huquqi tanlanishi mumkin. Bunda shartnoma mavzusi va taraflarning ko'zlagan maqsadlari birlamchi ahamiyat kasb etadi [10].

Nizolarni arbitraj orqali hal etishga kelishuvchi taraflar asosiy shartnoma yoki arbitraj kelishivi bitimlarida taraflarning xohishi bilan qonunda taqiqlanmagan qoidalar asosida arbitraj jarayonlarini tashkil qila oladilar. Bunday imkoniyatlar taraflarning avtonom huquqlari realizatsiyasi deb ham ataladi [11]. Taraflarga bunday imkoniyatlar qonun tomonidan taqdim etilgan. Misol uchun, O'zbekiston Respublikasining "Xalqaro tijorat arbitraji to'g'risida"gi Qonunida taraflarga arbitraj o'tkaziladigan joy, arbitraj tili va arbitrlarni tanlash huquqi berilgan. Ko'p holatlarda qonun taraflar kelishuvini o'rnatilgan tartiblardan ustun ko'radi. Shu sababli taraflar kelishuvida boshqacha holat ko'zda tutilmagan bo'lsa, degan jumlalar ayrim tartiblarni faqatgina taraflar belgilamagan masalalar doirasini qamrab oladi. Masalan, O'zbekiston Respublikasi "Xalqaro tijorat arbitraji to'g'risida"gi Qonuning arbitrlarni tayinlashni ko'zda tutuvchi moddasi shunday jumlalar bilan boshlanadi: "Agar taraflar boshqacha shartlashmagan bo'lsa, hech bir shaxs o'zining fuqaroligi sababli arbitr sifatida ishtirok etish huquqidan mahrum qilinishi mumkin emas".

Ushbu qoidadan tushunishimiz mumkinki, taraflarning arbitrlarni tanlash to'g'risidagi

irodasi asosiy amal qilinuvchi qoida bo'lishi lozim, ammo taraflar bu haqda kelishmagan bo'lsa, mazkur qonunda ko'zda tutilgan qoidalar qo'llanadi. Bunga qo'shimcha tarzda, yuqorida aytib o'tganimizdek, taraflarga nafaqat huquqshunos, balki boshqa sohadagi mutaxassislarni arbitr sifatida tanlashlariga imkon beriladi [12]. Misol uchun, taraflarga nizolarning mavzusi yuzasidan mutaxassislar tanlash imkoniyati taqdim etiladi. Bunda soha mutaxassislari nizolarni yanada osonroq va tezroq hal etishga yordam berishlari mumkin.

Model qonunida taraflarga arbitraj o'tkaziladigan joyni tanlashda ham erkinlik beriladi. Taraflar kelishgan holda o'zlariga ma'qul joyni arbitr joy o'tkaziladigan joy sifatida belgilashlari mumkin. Agar bunday kelishuv mavjud bo'lmasa, qonun talablari asosida arbitr joyi arbitr tribunal tomonidan belgilanadi.

Taraflar qonun talablari doirasida o'z irodalari bilan arbitraj jarayonlarini o'tkazishlari mumkin. Bu qoidalarning har birida taraflar irodasi birinchi o'ringa qo'yiladi. Ayni shu holat erk muxtoriyati prinsipining taraflar tomonidan realizatsiya qilinishidir.

Arbitraj kelishuvini tuzuvchi taraflar o'rtasidagi asosiy masalalardan biri ular munosabatlariga tatbiq etiluvchi huquqni tanlashdir. Aniqrog'i, qaysi mamlakat qonunlari ga bo'ysunishni aniqlab olishdir. Bu masala arbitraj kelishuvining eng muhim elementi hisoblanadi. Taraflar, asosan, huquqni tanlashda o'zları yashab turgan mamlakat huquqi, huquqini yaxshi biladigan mamlakat huquqi yoinki arbitr joyi o'tkaziladigan mamlakat huquqini hisobga oladilar.

Taraflar uchun asosiy maqsad kamroq vaqt va xarajatlar sarflagan holda nizolarni hal qilishdir. Aytaylik, taraflar biznesi Fransiyada joylashgan, shu sababli arbitr jarayonlari ham Fransiyada o'tkaziladi. Taraflar uchun eng ma'qul tanlov fransuz huquqidir. Taraflar ushbu huquqni tanlaganlarida o'zlarini ortiqcha ovoragarchilikdan xalos

etadilar. Agar shartnomalashuvchilar mazkur vaziyatda fransuz huquqini emas, ingliz huquqini tanlaganlarida, ekspert mutaxassis yordamida ingliz qonunchiligini o'rganish, qaysi davlatning ommaviy siyosatiga bo'y sunish va natijada majburiy qoidalarni aniqlashda tushunmovchiliklar yuzaga kelishi mumkin edi.

Taraflarning arbitraj kelishuvi bitimi tuzishiga asos bo'lgan shartnomaning amal qiladigan huquqi taraflarga nizolar yuzaga kelganda amal qiladigan huquqni tanlash uchun asos bo'lishi mumkin. Asosiy shartnomma taraflarning bosh maqsadini ko'rsatuvchi shartnomma hisoblanadi [12].

Aksariyat holatlarda arbitraj kelishuvi tuzuvchilar kelishuv bitimida taraflar amal qiladigan huquq va arbitraj jarayonlari o'tkazilishini belgilaydigan qoidalarni ko'rsatib o'tishadi, ammo taraflar o'rtasida kelishilmagan masalalar yuzasidan nizo ke lib chiqqanda, qaysi huquq, yanada aniqroq aytganda, qaysi davlat huquqiga amal qilish masalalari belgilanmaydi. Aynan shu masala doirasida ko'plab nizolar yuzaga kelishi kuzatiladi. Tipik holatda taraflar tomonidan asosiy shartnomma amal qiladigan huquq, arbitraj kelishuvi amal qiladigan huquq hamda arbitraj o'tkazilishi uchun alohida qoidalar tanlanadi [13]. Bunda taraflar o'rtasida arbitraj qarorlarining tan olinishi va ijroga qaratilishi yoki arbitraj qarorlarining haqiqiy emas deb topilishi yuzasidan nizolar ke lib chiqqanda, qanday huquq tanlangani haqidagi qoidalar taraflar kelishuvida belgilanmagan bo'lsa, bu masalalar qanday hal qilinishini ko'rib chiqamiz.

Avvalo, taraflar tomonidan arbitraj kelishuviga asos bo'lgan asosiy shartnomma amal qiladigan huquq va arbitraj jarayonlari o'tkazilishi uchun alohida qoidalar tanlanganda, qaysi huquq tamoyillariga amal qilish lozimligiga e'tibor qaratamiz.

UNCITRAL Model qonunida taraflar kelishuvida ko'rsatilmagan masalalar yuzasida nizo vujudga kelganda, taraflarga nizolar yu-

zasidan kelishib olishlari hamda shu kelishuv asosida harakatlanishi mumkinligi birinchi yechim sifatida ko'rsatiladi. Shu holatning belgilanishidan ham taraflarning arbitraj doirasida naqadar keng imkoniyatlarga ega ekanligini ko'rish mumkin. Yanada aniqroq aytganda, har qanday masalalar yuzasidan tarafarning o'z xohishlari asosidagi kelishuvi birlamchi ahamiyat kasb etadi. Bu hattoki nizolar uchun qo'llaniladigan huquqni tanlashda ham asosiy o'rnlarda turadi. Taraflar tomonidan kelishuvga erishilmaganda esa arbitraj tribunal yoki sud tomonidan hal qilinishi mumkin [14].

Oxirgi hal etiladigan masala asosiy shartnomma uchun tanlangan huquq yoki protsesslarni boshqarish uchun tanlangan huquq taraflar o'rtasida nizolarni hal etish imkoniyatiga ega bo'lishini hal etishdir. Bunda qonun talablariga asosan, taraflar qaysi shartnomma bilan ko'proq uzviy bog'langanligini aniqlab olish lozim. Agar taraflar o'rtasida nizolar yuzaga kelsa, bu nizolar qanday hal etilishiga oid tartiblar shartnomada ko'rsatib o'tilmaganida, taraflar qaysi shartnomma bilan ko'proq bog'langanligiga qarab huquq tanlanadi [15].

Aksariyat olimlar taraflarning arbitraj kelishuvi tuzilishiga asos bo'lgan asosiy shartnomma bilan ko'proq bog'langanligini qayd etadi. Ular bunga sabab sifatida asosiy shartnomma taraflarning umumiyl maqsadlarini qamrab olganligini ko'rsatadi [16]. Negaki taraflarning shartnomaga kirishishiga undagan va ularning ko'zlagan maqsadlari shu shartnomada belgilanganligi bois taraflar ushbu shartnomma bilan ko'proq bog'langandir. Agar taraflar asosiy ko'zlagan maqsadiga erishmasalar, ularning bundan keyingi harakatlari natijasi taraflar uchun ahamiyat kasb etmay qolishi mumkin deb hisoblaydilar [17]. Olimlar bunga yana shuni qo'shimcha qiladilarki, taraflarning arbitraj kelishuvi bitimi tuzishidan asosiy maqsadi ham asosiy shartnomadan ko'zlangan maqsadni ro'yobga chiqarishdir. Shu sababli bu

holatda taraflarning arbitraj kelishuvi bitimi ikkinchi darajali ahamiyat kasb etadi. Bu esa taraflarning asosiy shartnomaga bilan uzviy bog'langanligini ko'rsatadi.

Ayrim taddiqotchilar esa taraflar arbitraj kelishuvi bitimi bilan uzviy bog'langanligini ta'kidlashadi. Negaki har qanday asosiy shartnomaga qonun talablari doirasida yoziлади. Shu sababli taraflarga erkin harakat qilihlari uchun keng imkoniyat yaratmaydi. Ammo arbitraj kelishuvi bitimlarida esa taraflar ancha keng imkoniyatlarga ega bo'ladi. Bu esa taraflarning o'zlarini istagandek ko'rinishda kelishuvga erishishlariga imkon bera-di hamda taraflarning arbitraj kelishuvi bitimi bilan ko'proq bog'liq ekanligini ko'rsatadi [18]. Bunga qo'shimcha qilib shuni aytish mumkinki, taraflarning arbitraj kelishuvi tuzishdan maqsadi arbitraj qarorlaridan manfaat topishdir. Shunday ekan, arbitraj qarorlari yuzasidan nizolar kelib chiqqanda hamda ularni taraflar uchun manfaatli qilib hal etishda taraflarning irodasi asosida yozilgan kelishuv bitimidan foydalanish maqsadga muvofiq.

Fikrimizcha, taraflar dastlab kelishuvga borishlarida o'zlarining ko'zlagan maqsadlarini asosiy shartnomada ko'rsatib o'tadilar. Shuning uchun taraflarning birlamchi maqsadlari ham shartnomaga natijasiga erishishdir. Butun bir harakatlarning qanday maqsadlarni ko'zlab amalga oshirilayotgalligi taraflarning asosiy shartnomasiga bog'liq [19]. Aynan shu sabab bilan taraflar arbitraj kelishuvini tuzadilar. Asosiy shartnomani amalga oshirish uchun arbitraj kelishuvi ga qo'l uradilar. Shartnomaga kirishishdan va shartnomaga oshadigan bosqichlar davomida taraflar faqatgina shartnomaga shartlarini bajarish orqali unda ko'rsatilgan natijalarga yetishishga harakat qiladilar. Bu esa taraflar uchun asosiy shartnomaga qanchalik ahamiyatga ega ekanligining yaqqol dalilidir. Shunga qaramay, taraflar o'rtasida arbitraj qarorini amalga oshirishda nizolar kelib chiqqanda, nizolar taraflar

tomonidan o'rnatilgan qoidaga asosan, arbitraj kelishuvi qoidalari asosida hal etili-shi lozim. Chunki mavjud nizo taraflarning asosiy shartnomada qayd etilgan maqsad-lari asosida emas, balki arbitraj jarayonlari natijasida kelib chiqmoqda. Yanada aniqroq aytadigan bo'lsak, bu vaziyatda taraflarning umum ko'zlangan, asosiy shartnomada qayd etib o'tilgan maqsadga yetishlari uchun yagona yo'l - bu arbitraj qarorining tan olinishi va ijroga qaratilishidir [20]. Asosiy shartno-ma natijalarini qo'lga kiritish uchun arbitraj qarorlarini amalga oshirish maqsadga mu-vofiq. Bu esa mazkur vaziyatda taraflarning arbitraj kelishuvi bitimi bilan ko'proq bog'liq ekanligini ko'rsatadi.

Xulosalar

Xalqaro xususiy huquq doirasida erk muxtoriyati (party autonomy) prinsipi taraf-larga qonun doirasida avtonom huquqlar taqdim etadi. Bu taraflarning qonun chek-lamagan doirada erkin harakatlanishlari mumkin ekanligini anglatadi. Hattoki erk muxtoriyati prinsipi ham taraflarga qonun doirasidan tashqarida harakatlanish uchun imkoniyat yaratib berolmaydi. Faqatgi-na taraflarga qonun bilan chegaralangan miqyosda o'zlarini uchun qulay natijalarga erishish uchun ruxsat etadi. Bunga taraflarning xalqaro tijorat arbitraji kelishuvi bitimlari ni tuzishlarini misol keltirishimiz mumkin. Taraflar o'z irodalari asosida nizolarni hal etish uchun arbitrajga topshirish to'g'risida kelishib oladilar. Bunda kelishuvlar faqatgi-na taraflarning xohishi asosida amalga os-hadi. Taraflar avtonom huquqlarini realizati-siya qilib, arbitraj qanday o'tkazilishiga doir qoidalarni belgilaydilar. Taraflar uchun sud vakolatini rad eta olish avtonom huquqning dalili hisoblansa, taraflar tomonidan arbitraj kelishuvi bitimiga qonunda taqilangan qoi-dalar, misol uchun, jinoiy ishlar ham arbitraj-da ko'rib hal etilishi kabi qoidalarni kirita olmasligi erk muxtoriyati prinsipi qonun bi-lan cheklanganligining dalili hisoblanadi. Bir so'z bilan aytganda, erk muxtoriyati prinsipi

taraflarga o'z manfaatlari uchun harakatlanishga imkon beradi.

Taraflarning erk muxtoriyati (party autonomy) prinsipidan foydalanishdagi imkoniyatlarini yanada kengaytirish uchun taraflarga shartnoma yoki arbitraj kelishuvlarida ular o'rtaсидagi munosabatlar yoki nizolarni hal etishda qo'llanadigan huquqni tanlashda yanada kengroq imkoniyat berish lozim. Amalda taraflar faqatgina mamlakat qonunlarini shartnomalarida huquqiy man-

ba sifatida keltirishi mumkin. Lekin ularda odat huquqini, misol uchun, savdo-sotiqlarda qo'llaniladigan odat huquqini (Lex Mercatoria) tanlash imkoniyati mavjud emas. Bu taraflarning imkoniyatini kamaytiradi. Agar taraflarda munosabatlar uchun qo'llanadigan huquqni tanlash imkoniyati kengaytirilsa, ikki taraf uchun ham manfaatli bo'ladi. Bu esa shartnomalarining o'z-o'zi uchun yetarli bo'lishini (self-sufficient contracts) ham ta'minlaydi.

REFERENCES

1. Mills A. Party Autonomy in Private International Law. Cambridge University Press, 2013, p. 580.
2. Bermann P. Global legal pluralism: a jurisprudence of law beyond borders. Cambridge University Press, 2012, p. 340.
3. Basedow J. The Hague Principles on Choice of Law: their addressees and impact. *Uniform Law Review*, 2017, p. 304.
4. Bantekas I. The Foundations of Arbitrability in International Commercial Arbitration. *Yearbook of Private International Law*, 2003, p. 203.
5. Beaumont P. Hague choice of court agreements: background, negotiations, analysis and current status. *Journal of Private International Law*, 2009, p. 125.
6. Hook M. The choice of law agreements as a reason for exercising jurisdiction. *International and Comparative Law Quarterly*, 2017, p. 315.
7. Bermann P. "International standards" as a choice of law option in International Commercial Arbitration. *American Review of International Arbitration*, 2016, no. 27, pp. 217–220.
8. Blessing M. Mandatory rules of law versus Party Autonomy in International Arbitration. *Journal of International Arbitration*, 1997, no. 14, pp. 35–36.
9. Bonomi A. Overriding mandatory provisions in the Rome I Regulation on the Law Applicable to Contracts. *American Review of International Arbitration*, 2017, no. 10, pp. 23–25.
10. Hanotiau B. The law applicable to arbitrability. *Singapore Academy of Law Journal*, 2016, no. 9, pp. 40–42.
11. Harris J. Contractual freedom in the conflict of laws. *Oxford Journal of Legal Studies*, 2003, no. 12, pp. 130–132.
12. Hartley Choice of court agreements and the New Brussels I Regulation. *Law Quarterly Review*, 2013, no. 20, pp. 45–48.
13. Heiser W. The Hague Convention on choice of court agreements: the impact of forum non conveniens, transfer of venue, removal and recognition of judgements in United States Courts. *University of Pennsylvania Journal of International Law*, 2010, no. 31, pp. 120–123.

14. Johns F. Performing Party Autonomy. *American Journal of Comparative Law*, 2012, no. 71, pp. 78–80.
15. Keyes M., Marshall B. Jurisdiction Agreements: exclusive, optional and asymmetrical. *Journal of Private International Law*, 2015, no. 11, pp. 63–65.
16. Fentiman R. Unilateral Jurisdiction Agreements in Europe. *Cambridge Law Journal*, 2013, no. 24, pp. 72–75.
17. Garnett R. Coexisting and conflicting jurisdiction and arbitration clauses. *Journal of Private International Law*, 2013, no. 9, pp. 361–362.
18. Goodwin J. Reflexive effect and Brussels I Regulation. *Law Quarterly Review*, 2013, no. 9, pp. 67–69.
19. Brussels I. Regulation with Amendments. Available at: <https://eur-lex.europa.eu/legal-content/EN/TXT/?uri=celex%3A32012R1215/>.

YURIDIK FANLAR AXBOROTNOMASI

ВЕСТНИК ЮРИДИЧЕСКИХ НАУК

REVIEW OF LAW SCIENCES

Huquqiy ilmiy-amaliy jurnal

Правовой научно-практический журнал

Legal scientific-practical journal

2023-yil 1-son

VOLUME 7 / ISSUE 1 / 2023

DOI: 10.51788/TSUL.ROLS.2023.7.1.

BOSH MUHARRIR:

Rustambekov Islambek Rustambekovich

Toshkent davlat yuridik universiteti rektori v.v.b., y.f.d., professor

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Xodjayev Baxshillo Kamolovich

Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor, y.f.d., dotsent

Mas'ul muharrir: O. Choriyev

Muharrirlar: Y. Yarmolik, F. Muhammadiyeva,

Sh. Yusupova, Y. Mahmudov

Musahih: M. Patillaryeva

Texnik muharrirlar: U. Sapayev, D. Rajapov

Tahririyat manzili:

100047. Toshkent shahar, Sayilgoh ko'chasi, 35.

Tel.: (0371) 233-66-36 (1169)

Veb-sayt: review.tsul.uz

E-mail: lawjournal@tsul.uz

Obuna indeksi: 1385.

Jurnal 24.03.2023-yilda tipografiyaga

topshirildi. Qog'oz bichimi: A4.

Shartli 15,8 b.t. Adadi: 100. Buyurtma raqami: 12.

TDYU tipografiyasida chop etildi.